

OLIV PEDAGOGIK TA'LIMDA BULLINGGA OI KOMPETENSIYALARNING TARKIBI

Oribboyeva Dilafuz Dadamirzayevna

Namangan davlat pedagogika instituti

Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Mail:oribboyevad@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-2827-7166>

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim muhitida dolzarb bo'lib borayotgan bulling muammosi hamda uning o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda bullingning oldini olishga qaratilgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi yoritilgan. Mazkur kompetensiya kognitiv (bilim), faoliyatiy (ko'nikma) va affektiv (munosabat) komponentlar asosida tizimli ravishda tahlil qilinadi. Maqolada bulling hodisasining nazariy asoslari, psixologik va ijtimoiy omillari, diagnostika mezonlari hamda pedagogik aralashuv strategiyalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bulling profilaktikasini tashkil etishda o'qituvchining empatiya, insonparvarlik, adolatga sodiqlik kabi affektiv sifatlari muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bullingga oid kompetensiyalarni shakllantirish integratsiyalashgan pedagogik yondashuv, zamonaviy ta'lim modellaridan foydalanish hamda nazariy va amaliy tayyorgarlikning uyg'unligi asosida samarali amalga oshirilishi mumkin.

Kalit so'zlar: bulling, bulling profilaktikasi, pedagogik kompetensiya, kognitiv komponent, faoliyatiy komponent, affektiv komponent, bo'lajak o'qituvchi, ijtimoiy-psixologik xavfsizlik, pedagogik aralashuv, empatiya, refleksiya, ta'lim muhitida zo'ravonlik.

СОСТАВ КОМПЕТЕНЦИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМОЙ ИЗДЕВАТЕЛЬСТВ В ВЫСШЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Аннотация. В статье анализируется проблема буллинга, которая становится все более актуальной в современной образовательной среде, а также её негативное влияние на социально-эмоциональное развитие учащихся. В исследовании рассматривается вопрос формирования профессиональных компетенций будущих учителей по профилактике буллинга в высших педагогических образовательных учреждениях. Данная компетенция системно анализируется на основе трёх компонентов: когнитивного (знания), деятельностного (умения и навыки) и аффективного (отношение и ценностные установки). В статье раскрываются теоретические основы буллинга, его психологические и социальные факторы, диагностические критерии и стратегии педагогического вмешательства. Также обосновывается важная роль таких аффективных качеств учителя, как эмпатия, гуманизм и приверженность принципам справедливости в организации профилактики буллинга. Результаты исследования показывают, что формирование компетенций по профилактике буллинга может эффективно осуществляться на

основе интегрированного педагогического подхода, использования современных образовательных моделей и сочетания теоретической и практической подготовки.

Ключевые слова: буллинг, профилактика буллинга, педагогическая компетенция, когнитивный компонент, деятельностный компонент, аффективный компонент, будущий учитель, социально-психологическая безопасность, педагогическое вмешательство, эмпатия, рефлексия, насилие в образовательной среде.

COMPOSITION OF COMPETENCES RELATED TO BULLYING IN HIGHER PEDAGOGICAL EDUCATION

Abstract. *The article analyzes the problem of bullying, which is becoming increasingly relevant in the modern educational environment, as well as its negative impact on students' socio-emotional development. The study examines the issue of developing professional competencies of future teachers aimed at preventing bullying in higher pedagogical education institutions. This competence is systematically analyzed on the basis of three components: cognitive (knowledge), activity-based (skills and abilities), and affective (attitudes and values). The article discusses the theoretical foundations of bullying, its psychological and social factors, diagnostic criteria, and strategies for pedagogical intervention. It also substantiates the important role of teachers' affective qualities such as empathy, humanism, and commitment to justice in organizing bullying prevention. The research findings show that the development of competencies related to bullying prevention can be effectively implemented through an integrated pedagogical approach, the use of modern educational models, and the combination of theoretical and practical training.*

Keywords. *bullying, bullying prevention, pedagogical competence, cognitive component, activity-based component, affective component, future teacher, socio-psychological safety, pedagogical intervention, empathy, reflection, violence in the educational environment.*

KIRISH

Zamonaviy maktab muhitida bolalar va o'smirlar o'rtasida bulling holatlarining ko'payib borayotgani o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan kasbiy talablarning keskin oshishiga olib kelmoqda. Shu boisdan oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat an'anaviy didaktik tayyorgarligi, balki ijtimoiy-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga doir maxsus kasbiy kompetensiyalari ham shakllantirilishi lozim. Chunki bulling hodisasi, psixologik-pedagogik jihatdan olib qaralganda, maktabdagi shaxslararo munosabatlar tizimining buzilishi, nizoli vaziyatlarning chuqurlashuvi va o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida namoyon bo'ladi [3].

2024-yil 14-noyabrda O'zbekistonda qabul qilingan «Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi qonun ta'lim muassasalaridagi xavfsiz psixologik muhitni ta'minlashga oid majburiyatlarni aniq belgilab berdi [1]. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim dasturlariga bullingni oldini olishga qaratilgan kompetensiyalarni kiritishni dolzarb masalaga aylantiradi. Tadqiqot metodikasi: Ilmiy tadqiqotlar, xususan, G.A.Trufanov va boshqalarning ishlari, shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchilarda bullingni aniqlash, baholash va unga aralashish bo'yicha kompetensiyalar yetarli shakllanmagani bulling holatlarini yillar davomida kuchaytirib yuborishi mumkin. Shunday ekan, bu kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy, tizimli, komponentlarga bo'lingan modelga asoslangan yondashuvni qo'llash zarur [4].

METODOLOGIYA

Kompetensiyalarning mazmuni (tarkibiy komponentlar)ni batafsil va bosqichma-bosqich tahlil qilamiz:

Bilim (kognitiv komponent). Bu komponent pedagogik faoliyatning nazariy asosini tashkil etadi. Bo'lajak o'qituvchi bulling hodisasi, uning psixologik mexanizmlari va ijtimoiy sabablari haqida chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Bilimlar quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1-bosqich. Asosiy tushunchalar va ta'riflar. Bo'lajak o'qituvchi bulling va unga yaqin tushunchalarni (agressiya, nizolar, tahqirlash, kiberbulling) to'g'ri farqlay olishi lozim. Olweus modeli bo'yicha bullingni muntazam, maqsadli va kuch muvozanatining buzilishi sifatida tushunish muhim nazariy baza bo'lib xizmat qiladi.

2-bosqich. Tasniflash va identifikatsiya qilish. Bullingning shakllari (jismoniy, og'zaki, ijtimoiy, kiberbulling) va ijtimoiy rollari (agressor, jabrlanuvchi, kuzatuvchi) bo'yicha bilimlar aniqlanadi. O'qituvchi ushbu bilim asosida o'quvchilar xatti-harakatlarini to'g'ri talqin qila olishi zarur.

3-bosqich. Huquqiy va etik asoslar. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, maktab nizomlari va xalqaro huquqiy hujjatlar (BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi) bo'yicha xabardorlik kognitiv tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismidir [2].

Ko'nikma (faoliyatiy komponent). Bu komponent bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyatini anglatadi. U quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

1-bosqich. Monitoring va aniqlash ko'nikmalari: bo'lajak o'qituvchilar ijtimoiy-psixologik kuzatuv, suhbat, anonim so'rovnomalar orqali sinfda bulling mavjudligini aniqlashga o'rgatiladi.

2-bosqich. Pedagogik aralashuv va vositachilik: bu bosqichda talabalar konstruktiv yechimlar ishlab chiqish, jabrlanuvchini qo'llab-quvvatlash, bullerni neytrallash va sinf muhitini tiklash usullarini amaliyotda sinab ko'rishadi.

3-bosqich. Profilaktik tadbirlar tashkillashtirish: treninglar, davra suhbatlari, maxsus tarbiyaviy darslar, ota-onalar bilan seminarlar tashkil etish orqali ijtimoiy-hamkorlik muhitini mustahkamlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

4-bosqich. Samarali muloqot va refleksiya: o'qituvchi har bir vaziyatga ijtimoiy-emotsional moslashgan, empatik va muloqotga ochiq yondashuvni qo'llay olishi lozim. Shuningdek, o'z faoliyatini baholay olish (reflektiv tahlil) ko'nikmalari ham bu bosqichga kiradi [6].

Munosabat (affektiv komponent). Bu komponent o'qituvchining shaxsiy qadriyatlari, ichki e'tiqodi va hissiy barqarorligiga taalluqli bo'lib ular quyidagicha:

1-bosqich. Empatiya va axloqiy sezuvchanlik: bo'lajak o'qituvchining o'quvchi his-tuyg'ulariga nisbatan sezuvchanligi, empatiya qilish qobiliyati, jabrlanuvchining ruhiy holatini tushuna olish salohiyati rivojlantiriladi.

2-bosqich. Notolerantlik va murosasiz pozitsiya: o'qituvchi har qanday tazyiqni qoralashga tayyor bo'lishi, «Zo'ravonlikka qarshi pozitsiyam qat'iy» degan e'tiqodga ega bo'lishi kerak.

3-bosqich. Mas'uliyat va o'zini baholash: o'qituvchining bullingni bartaraf etishdagi professional roli va burchi, harakatga tayyorligi, o'z xatti-harakatlarini baholay olish (reflektiv munosabat) affektiv komponentni mustahkamlaydi [27:29].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Kompetensiya modelining vizual ifodasi (shakl va jadval bilan) jadval va sxema ko'rinishidagi tuzilma ushbu paragrafda juda muhim ahamiyatga ega. Vizual ko'rinishda:

Kognitiv komponent: nazariy bilimlar, huquqiy me'yorlar, faoliyatiy komponent: diagnostika, vositachilik, trening o'tkazish, affektiv komponent: empatiya, qat'iy pozitsiya, reflektiv yondashuv. Ushbu uchlikni Venn diagramma tarzida berish yoki blok sxema (o'quvchi → bulling → o'qituvchi aralashuvi → natija) orqali ifodalash ko'rgazmaliligini oshiradi. Tuning modelida har bir kompetensiya aniq natijalar orqali ifodalanadi: «talaba biladi → tushunadi → bajara oladi» [15]. Bizning modelda bu aynan kognitiv (biladi), faoliyatiy (qila oladi), affektiv (munosabat bildiradi) tarzida namoyon bo'ladi.

CDIO modelidagi «tasavvur qilish – rejalashtirish – amalga oshirish – tahlil qilish» siklini bullingga oid loyiha asosida joriy etish mumkin. Masalan: talaba bulling holatini aniqlaydi → chora-tadbir rejalashtiradi → maktabda amaliy trening o'tkazadi → o'z ishini baholaydi va tahlil qiladi [33].

Zamonaviy pedagogik faoliyatda bilimlar nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki o'qituvchining ijtimoiy javobgarligini ham belgilovchi omil sifatida e'tirof etiladi. Bulling profilaktikasiga oid bilimlar majmui – bo'lajak pedagoglar tomonidan bu muammoni chuqur tushunish, aniqlash va unga ongli munosabatda bo'lish uchun zarur bo'lgan nazariy asosdir. Ushbu bilimlar quyidagi bosqichlarda shakllanadi:

Bulling tushunchasi va nazariy asoslari haqida bilimlar. O'qituvchi bullingni faqat «Agressiv xulq-atvor» deb emas, balki psixologik-ijtimoiy hodisa sifatida idrok etishi zarur. Bu yerda Olweus (1993) tomonidan ishlab chiqilgan asosiy mezonlar muhim bo'lib unga ko'ra bulling – bu muntazamlik, kuchlardagi muvozanatning buzilishi va jabrlanuvchining o'zini himoya qila olmasligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, bullingning verbal, jismoniy, ijtimoiy, kiber shakllari, ularning xavfi va ijtimoiy oqibatlarini haqida chuqur bilimlar zarur [7].

Psixologik va ijtimoiy omillarni tushunish. Bulling faqat individual xatti-harakat emas, balki maktab muhitidagi tizimli muammolarning natijasidir. Bo'lajak o'qituvchi o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari (tashqi ko'rinish, guruhga mansublik, avtonomiya istagi) bilan bulling o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishi kerak. Bu bilimlar konfliktologiya, sotsial psixologiya, yosh davri psixologiyasi kabi fanlar orqali shakllanadi [9].

Bullingni aniqlash mezonlari va baholash indikatorlari. O'qituvchi bullingni oddiy mojaro yoki hazildan farqlay olishi uchun, unga xos indikatorlar (xulqdagi o'zgarishlar, qo'rquv, izolyatsiya, davomatdagi o'zgarishlar) haqida tizimli bilimga ega bo'lishi kerak. Diagnostik savolnomalar, so'rovnomalar, tahliliy kuzatuv metodlari – bu bilimlar amaliy faoliyatga zamin yaratadi [10].

Huquqiy-me'yoriy bilimlar. 2024-yilda qabul qilingan «Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi qonun, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonuni», maktab ichki nizomlari va bola huquqlari bilan bog'liq xalqaro konvensiyalar bo'lajak o'qituvchining bullingga qarshi chora ko'rish borasida qonuniy asosda harakat qilishiga imkon yaratadi [1:2:].

Tashqi va ichki siyosat haqida xabardorlik. Maktablardagi xavfsiz muhitni ta'minlashga qaratilgan mahalliy siyosatlar, pedagogik texnologiyalar, «Har bir bola xavfsiz muhitda o'qish huquqiga ega» degan tamoyil doirasida o'qituvchi faoliyat yuritishi lozim. Bu esa bilimlarning tizimlashtirilgan va normativ asoslangan bo'lishini talab qiladi [1:2:14].

Ko'nikma (faoliyatiy komponent): Nazariy bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyati. Bilimlar mustahkam bo'lsa-yu, lekin amalda qo'llanilmasa, samaradorlik pasayadi. Shu bois bullingga oid kompetensiyaning faoliyatiy komponenti-o'qituvchining aniq vaziyatda to'g'ri va samarali harakat qila olish salohiyatidir [46; 10]. Bu komponent quyidagi bosqichlardan iborat:

Bulling holatlarini aniqlash va kuzatish. Talaba real ta'lim muhitida bulling holatlarini aniqlay olishi zarur. Bunda analitik kuzatuvlar, o'quvchilarning xatti-harakatlariga baho berish, og'zaki va noverbal signalni aniqlash ko'nikmalari yetakchi o'rinda turadi.

Diagnostika va baholash. Bulling holatlarini baholashda testlar, anonim savolnomalar, sinf ichidagi pozitsion karta tahlili, sotsiometrik metodlar kabi psixologik-diagnostik vositalardan foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Aralashuv strategiyalari. Bo'lajak o'qituvchi bulling holatida qanday pedagogik chora ko'rish, tajovuzkor va jabrlanuvchiga qanday yondashish, vaziyatni qanday yumshatish kerakligini bilibgina qolmay, buni amalda bajarishni o'rganadi.

Bu bosqichda vositachilik (meditatsiya), guruh bilan ishlash texnikasi, «Muvaffaqiyatli aralashuv ssenariylari» o'rgatiladi [14].

Profilaktika tadbirlarini tashkillashtirish. Treninglar, rolli o'yinlar, kichik guruhlar bilan suhbatlar, ota-onalar ishtirokidagi muhokamalar, ijtimoiy psixologik treninglar tashkil etish bo'yicha ko'nikmalar ishlab chiqiladi. Bu bosqichda «Trenerlik mahorati» ham o'rganiladi [10].

Hamkorlik va kommunikatsiya ko'nikmalari. Psixolog, sinf rahbari, ma'muriyat, ota-onalar va boshqa o'qituvchilar bilan muammoni hal qilishda integratsion muloqot yuritish qobiliyati shakllantiriladi. Masalan, ota-onaga bulling haqida qanday ogohlantirish, bolani qanday qo'llab-quvvatlash, qanday murosa yo'lini taklif qilish [12].

Refleksiya va o'zini tahlil qilish. Har bir pedagog o'z harakatlarini qayta baholay olishi, o'zining hissiy va professional pozitsiyasini tahlil qila olishi kerak. Refleksiya ko'nikmasi – o'z ustida ishlashga undovchi, doimiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim komponentdir [15].

Munosabat (affektiv komponent): Pedagogning ichki e'tiqodi, pozitsiyasi va hissiy barqarorligi. Ta'lim sifatining muvaffaqiyatli shakllanishida o'qituvchining hissiy va qadriyatli munosabatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Affektiv komponent o'qituvchining ichki motivatsiyasi, e'tiqodi, axloqiy tamoyillari va mas'uliyat hissini o'z ichiga oladi. Quyidagi bosqichlar orqali shakllanadi:

Empatiya va hissiy sezgirlik. Bullingga duch kelayotgan o'quvchining ichki holatini sezish, his-tuyg'ulariga sherik bo'lish, hamdardlik bildira olish-o'qituvchining shaxsiy fazilati sifatida namoyon bo'ladi. Bu xatti-harakatlar «hissiy intellekt» asosida shakllanadi [3].

Insonparvarlik va adolatga sodiqlik. Barcha o'quvchilarga teng, adolatli munosabatda bo'lish, har qanday tazyiqni rad etish, tenglik va xavfsizlik qadriyatlariga sodiq qolish affektiv tayyorgarlikning markaziy elementi hisoblanadi.

Notolerant munosabat (murosasizlik). Bulling holatlariga befarqlik emas, balki murosasiz va faol aralashuv zarurligi bo'yicha o'qituvchi qat'iy pozitsiyaga ega bo'lishi kerak. Bu ijtimoiy javobgarlik va kasbiy tamoyilga sodiqlikni ifodalaydi.

Kasbiy burchni his qilish. Bullingni bartaraf etishda o'zini mas'ul shaxs sifatida ko'ra olish, himoya mexanizmini ishlab chiqishga tayyor bo'lish o'qituvchining ichki etikasiga daxldor.

Reflektiv yondashuv. Affektiv tayyorgarlik o'z ichiga o'qituvchining his-tuyg'ularini tahlil qila olish, o'zining hissiy reaksiyalarini baholay olish, muayyan vaziyatda qanday his qilgani haqida chuqur tafakkur yurita olish fazilatlarini ham qamrab oladi.

Oliy pedagogik ta'limda bullingga oid kompetensiyalarning tarkibi va modeli (bosqichma-bosqich kengaytirilgan) quyidagilardan tashkil topadi:

Diagnostika va aniqlash mezonlarini o'rganish. Talaba quyidagi diagnostik indikatorlarni nazariy jihatdan o'rganadi:

-o'quvchilarda izolyatsiya, xavotir, motivatsiyaning pasayishi, davomatdagi muammolar, zo'ravonlik alomati bo'lishi mumkin bo'lgan og'zaki va noverbal signallar, kuzatuv, suhbat, so'rovnoma va sotsiometriya asosida bullingni aniqlashga doir bilimlar, bullingni oddiy mojaro yoki tarbiyaviy muammo sifatida emas, balki tizimli psixologik xatar sifatida aniqlay olish qobiliyatini shakllantiruvchi nazariy bilimlar.

Huquqiy va me'yoriy baza bilan tanishish. Talaba quyidagi normativ- huquqiy hujjatlar asosida bilimlar oladi:

-2024-yil 14-noyabrdagi «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi qonuni [2], O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya [1:2:14], maktab ichki nizomlari, axloqiy kodekslar, xavfsiz maktab modeli.

Kuzatuv va monitoring ko'nikmalari orqali talaba bulling alomatlarini:

- o'quvchilarning muloqot uslubi, jismoniy harakatlar, emotsional reaksiyalari orqali aniqlay oladi;

- ijtimoiy-psixologik metodlar (kuzatuv, savolnoma, intervyu, sotsiometriya) yordamida sinfdagi xavfli munosabatlar dinamikasini aniqlashni o'rganadi;

- sinfdagi «past statusdagi» o'quvchilarning o'zini tutishi va holatini tahlil qiladi.

Bullingga to'g'ri pedagogik javob berish ko'nikmasi orqali bu bosqichda talabalar:

- bulling vaziyatida haddan oshmasdan, hissiy barqarorlikni saqlab aralashuv strategiyalarini qo'llashni o'rganadi;

- meditatsiya (vositachilik), restorativ yondashuv, rolli o'yinlar orqali o'z roli va pozitsiyasini mustahkamlaydi;

-o'qituvchi-jabrlanuvchi-agressor o'rtasida ko'prik bo'lish ko'nikmasini hosil qiladi [7].

Profilaktika tadbirlarini o'tkazish mahorati orqali talaba quyidagilarni o'zlashtiradi[9]:

- bullingga qarshi psixologik-pedagogik treninglar tuzish va o'tkazish;

- ota-onalar va sinf jamoasi bilan suhbatlar, davra suhbatlari, sinf soatlarida profilaktika texnologiyalarini qo'llash;

- trenerlik qobiliyatlarini (prezentatsiya, interaktiv usullar, munokama yuritish) rivojlantirish.

Hamkorlik va kommunikatsion salohiyat orqali bu bosqichda talaba:

- psixolog, ma'muriyat, ota-onalar va tengdoshlar bilan hamkorlik strategiyalarini shakllantiradi;

- muammoli vaziyatda kelishuvga erishish uchun interaktiv muloqot texnikasini o'rganadi;

- «agressiv bola» bilan ishlash etikasi, «jabrlanuvchini qo'llab-quvvatlash» usullari asosida kommunikatsion rollarni ijro qiladi [11].

XULOSA

Refleksiya va o'z ustida ishlash ko'nikmasi orqali talaba bulling holatidan so'ng o'zining hissiy javobini tahlil qiladi, qanday aralashgani, qanday ta'sir ko'rsatgani haqida o'zini baholaydi, nimalarni to'g'ri yoki noto'g'ri qilganini anglab, mustahkam reflektiv pozitsiyani shakllantiradi, empatiya va hissiy sezgirlik masalasida talaba quyidagilarga o'rgatiladi, jabrlanuvchining holatini yurakdan his qilish, unda nafaqat achinish, balki faol yordam berishga tayyorlik hissini uyg'otish, har bir o'quvchining sha'ni, qadr-qimmatiga hurmat bilan qaraydi, barcha bolalar uchun teng xavfsiz va psixologik barqarorlik muhitini yaratadi;

- «Men har qanday zo'ravonlikka qarshiman» degan e'tiqodni ichki tamoyilga aylantiradi.

Notolerantlik va kasbiy burch, bu bosqichda pedagog:

- bullingni «kattalashtirmaslik» yoki «o'zi hal bo'ladi» deyish o'rniga, unga zudlik bilan aralashishga tayyor bo'ladi;

- kasbiy etika asosida zo'rvonlik holatiga murosasiz yondashadi;

- «Men himoyachiman» degan pozitsiyani egallaydi [119:121].

Reflektiv yondashuv va hissiy muvozanat jarayonida talaba:

- o'zining hissiy reaksiyalarini tahlil qiladi (masalan, tajovuzkor o'quvchiga achinish, qo'rquv, nafrat);

- o'z munosabatini doimiy takomillashtirib borishga tayyor bo'ladi;

- hissiy intellekt asosida ichki barqarorlikni saqlaydi.

Ushbu komponentlar asosida bullingga oid kompetensiya uzviy va yaxlit modelni tashkil qiladi. Har bir komponentning rivojlanishi bir-biriga bog'liq va kompleks shaklda amalga oshiriladi. Ularni alohida emas, balki integratsiyalashgan pedagogik yondashuv asosida shakllantirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi «Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni O'RG-996. 2024 yil. 14-noyabr.
2. Бола хуқулари тўғрисидаги конвенция. 29.07.1994
3. Баева И.А. Психологическая характеристика образовательной среды: диагностика и оценка // Известия российского государственного университета им. А.И. Герцена. 2002. Т.2. – №3. – С. 16-23.
4. Баева И.А., Семикин В.В. Безопасность образовательной среды, психологическая культура и психическое здоровье школьников // Известия российского государственного университета им. А.И.Герцена. 2005. Т.5. – №12. – С. 7-19.
5. Баева И.А. Общепсихологические категории в практике исследования психологической безопасности образовательной среды // Известия российского государственного университета им. А.И. Герцена. 2010. – №128. – С.27-39.
6. Blum taksonomiyasi va zamonaviy ta'limda uni qo'llash masalalari // O'zbekistonda pedagogik tadqiqotlar to'plami, 2023. oefen.uzoefen.uz
7. «Bulling, uning shakllari, oqibatlar va preventsiyasi» mavzusida uslubiy tavsiyalar. «Mahalla va oila» ilmiy-tadqiqot instituti, – Toshkent, 2021.
8. Виниченко М.А. Психологическая безопасности личности старшеклассника в образовательном пространстве профильного обучения лицей-интерната И Психология образования: региональный опыт (Москва, 13-15 декабря 2005 г.). Материалы Второй научно-практической конференции. - М.: Общероссийская общественная организация «Федерация психологов образования России», 2005. – С.40-41.

9. Гапонова С.А., Майорова И.А. Возможности создания психологической безопасности образовательных систем // Психология образования: региональный опыт (Москва, 13-15 декабря 2005 г.). Материалы Второй научно-практической конференции. – М.: Общероссийская общественная организация «Федерация психологов образования России». –С.43-44.
10. Гришина Татьяна Геннадьевна Социально-психологические факторы ролевого поведения подростков в ситуации буллинга Специальность 19.00.05 – Социальная психология (психологические науки). Диссертация на соискание ученой степени кандидата психологических наук Научный руководитель: доктор психологических наук, доцент Нестерова А.А. Мытищи, 2020.
11. De Luca L., Menesini E. (2019). The Teacher's Role in Preventing Bullying – o'qituvchi kompetensiyasi va bulling darajasi o'rtasidagi bog'liqlik tadqiqoti. frontiersin.org
12. Netrobenko L.V. (2022). Bulling profilaktikasi: metodik tavsiyalar – o'qituvchilar uchun tavsiyalar to'plami.
- 13.OECD (2017) xalqaro taqqonslov hisoboti. Yaponiya va AQSh o'quvchilari o'rtasidagi bulling tafovutlarifiles.eric.ed.gov.
- 14.Oribboyeva D.D. O'quvchilar jamoasidagi bullingni bartaraf etishda sinf rahbarining faoliyati // «Ta'lim va taraqqiyot» ilmiy-uslubiy jurnali Наманган, 2025. – №3. – В. 232-238.
- 15.Olweus D. va boshq. Bulling bo'yicha xorijiy tadqiqotlar (1978–2012) – bulling turlarini o'rganish va profilaktika masalalari bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.